

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 6-yanvar kuni o'tkaziladi

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-20250106>

"O'ZKIMYOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 6-yanvar kuni soat 16:00 da masofadan turib axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron ovoz berish "eVote" platformasi orqali o'tkaziladi.

KUN TARTIBI:

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJning 2023-yil 31-dekabrda yakunlangan yillik moliyaviy hisobotlarning Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga muvofiq (MHXS) auditorlik xulosasini ko'rib chiqish.
4. "O'zkimyosanoat" AJning 2024-yil yakuni bo'yicha konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarning xalqaro audit standartlariga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish.
5. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ustav kapitalidagi "O'zkimyosanoat" AJga tegishli 100 foiz aksiya paketini o'tkazish.
6. "O'zkimyosanoat" AJ ustav kapitalini kamaytirish.
7. "O'zkimyosanoat" AJ ustaviga o'zgartirish kiritish orqali uni yangi tahrirda tasdiqlash.
8. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga o'zgartirish kiritish va aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga kiritiladigan o'zgartirishlar matnini tasdiqlash.
9. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi, boshqaruvi raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va importni maqbullashtirish bo'yicha birinchi o'rinbosari hamda jamiyat boshqaruvi raisining investitsiya faoliyati bo'yicha o'rinbosarini tayinlash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasi: 2024-yil 14-dekabr holatiga.

Umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati 2024-yil 26-dekabr holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan tuziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (<http://evote.uz/>) foydalangan holda, 2025-yil 6-yanvar kuni soat 15:30 da boshlanib, soat 16:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va ovoz berish tartibi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi

tomonidan e-Vote elektron ovoz berish xizmatidan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Umumiy yig'ilishda shaxsan ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi